


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib




Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 13 175,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 105,1 %ni tashkil qildi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 2 952,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 178,9 %ni), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 10 223,0 mlrd. so'mni (93,9 %ni), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 850,3 mlrd. so'mni (73,0 %ni) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm




HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT


Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 13 175,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan 105,1 % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasi 77,6 % va yirik korxonalar hissasi 22,4 %ga to'g'ri keldi.



ENG YUQORI ULUSH



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Samarqand shahrida bo'lib jamiga nisbatan 40,7 % ni yoki 5 356,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng past ulush Paxtachi tumanida 2,0 % yoki 259,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelmoqda. Mazkur hajm 2020- yil yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, 10 223,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 6,1 % ga kamaygi. Jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 77,6 % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Kattaqo'rg'on shahrida (99,8 %) va Jomboy (99,1 %), Nurobod (99,0 %), Kattaqo'rg'on (98,8 %), Ishtixon (98,9 %), Narpay (98,8 %), Qo'shrabot (98,9 %), va Payariq (98,6 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yil yanvar-oktabr

2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan viloyatning hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatildi, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Samarqand shahrida (109,2 %) va Jomboy (105,7 %), Payariq (104,1 %), Samarqand (103,5 %) tumanlarda qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	13 175,9	105,1	2 952,9	178,9	10 223,0	93,9
Samarqand shahri	5 356,1	109,2	2 748,1	184,0	2 608,0	76,4
Kattaqo'rg'on shahri	629,2	102,0	1,0	95,2	628,2	102,0
tumanlar:						
Oqdaryo	312,0	102,8	5,6	115,4	306,4	102,6
Bulung'ur	648,8	101,8	86,1	20,7 m.	562,8	88,9
Jomboy	449,2	105,7	3,8	95,7	445,4	105,8
Ishtixon	499,4	102,6	5,7	42,5	493,7	104,3
Kattaqo'rg'on	490,5	103,2	6,0	98,7	484,6	103,2
Qo'shrabot	283,9	101,4	3,1	101,1	280,8	101,4
Narpay	377,2	101,9	4,6	94,8	372,6	102,0
Payariq	444,3	104,1	6,3	95,2	438,0	104,3
Pastdarg'om	779,0	101,7	20,8	42,7	758,2	105,8
Paxtachi	259,9	102,2	4,6	108,1	255,2	102,1
Samarqand	561,8	103,5	12,9	92,6	548,8	103,8
Nurobod	302,2	100,9	2,9	114,3	299,3	100,8
Urgut	1 408,4	102,1	26,3	94,9	1 382,1	102,8
Toyloq	374,0	102,8	15,1	3,5 m.	358,9	99,8

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 78,9 %ga o'sdi va 2 952,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 22,4 % ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 10 223,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 6,1 % ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 77,6 % ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,8 %), Jomboy (99,1 %), Nurobod (99,0 %), Kattaqo'rg'on (98,8 %), Ishtixon (98,9%) va Qo'shrabot (98,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 22,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (51,3 %), Bulung'ur (13,3 %), Toyloq (4,0 %) va Pastdarg'om (2,7 %) tumanlarida kuzatildi.



SAMARQAND VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


2020- yil yanvar-oktabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 3 375,8 ming so'm (2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 103,1 %ni tashkil etdi) va Pastdarg'om (99,7 %), Qo'shrabot (99,3 %), Nurobod (99,0 %) hamda Urgut (99,6 %) tumanlarida aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori Samarqand shahri (9 765,0 ming so'm), Kattaqo'rg'on shahri (6 991,5 ming so'm) va Bulung'ur tumani (3460,5 ming so'm), Urgut tumani (2754,0 ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.




Hudud nomi	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, % da
Samarqand viloyati	3 375,8	103,1
Samarqand shahri	9 765,0	107,7
Kattaqo'rg'on shahri tumanlar:	6 991,5	100,4
Oqdaryo	1 952,6	100,8
Bulung'ur	3 460,5	100,0
Jomboy	2 590,6	103,2
Ishtixon	1 958,3	100,5
Kattaqo'rg'on	1 791,5	101,4
Qo'shrabot	2 150,7	99,3
Narpay	1 765,9	100,2
Payariq	1 768,2	102,0
Pastdarg'om	2 190,0	99,7
Paxtachi	1 797,1	100,6
Samarqand	2 216,9	101,4
Nurobod	2 002,6	99,0
Urgut	2 754,0	99,6
Toyloq	1 850,4	100,5


Asosiy tarkib, foizda




O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 850,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 73,0 % ni tashkil qildi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi 315,1 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 64,0 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 535,2 mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 79,6 %) ni tashkil etdi.

**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 315,1 mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 535,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	850,3	73,0	315,1	64,0	535,2	79,6
Samarqand shahri	41,9	30,2	40,0	29,6	1,9	19,6
Kattaqo'rg'on shahri	103,9	171,4	35,9	66,7	68,0	7,6 m.
tumanlar:						
Oqdaryo	48,4	94,0	3,9	167,6	44,5	93,2
Bulung'ur	70,4	76,0	33,8	141,8	36,6	54,2
Jomboy	95,0	132,6	31,7	2,4 m.	63,3	111,8
Ishtixon	26,4	46,5	6,3	33,1	20,1	53,9
Kattaqo'rg'on	77,1	114,7	32,9	121,3	44,2	110,9
Qo'shrabot	24,2	40,4	9,2	33,3	15,0	46,5
Narpay	36,0	80,9	35,6	85,2	0,5	11,1
Payariq	72,5	102,4	16,2	122,8	56,3	100,2
Pastdarg'om	44,8	52,8	5,2	28,3	39,7	60,4
Paxtachi	34,9	65,9	10,8	79,0	24,1	62,1
Samarqand	45,0	93,0	5,3	2,2 m.	39,6	88,8
Nurobod	55,2	74,7	23,7	110,3	31,4	61,1
Urgut	42,8	31,1	14,0	22,0	28,9	39,8
Toyloq	31,8	60,7	10,6	83,6	21,2	54,5

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



3,3
mlrd. so'm

Tuzlamalar



119,4
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



12,5
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

43,3
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



17,6
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

8,5
mlrd. so'm



Tuxum

51,1
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)**

8,8
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-xashaklar**

6,1
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)**

5,9
mlrd. so'm



Ziravorlar

38,6
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

2020-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 315,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (119,4 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, viloyat bo'yicha faoliyat ko'rsatib kelayotgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 535,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 439,0 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 76,0 mlrd. so'mni, otlar 16,6 mlrd. so'mni, parrandalar 3,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**


2020- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,0 % ni tashkil etib, 259,4 mlrd. so'm yoki 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 80,3 % ni tashkil etdi. Bunda jami savdo aylanmasining 83,8 % lik ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining
o'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	259,4	80,3	42,0	168,8	217,4	72,9
Samarqand shahri	147,9	83,1	39,5	165,1	108,4	70,4
Kattaqo'rg'on shahri	8,6	78,8	0,0	0,0	8,6	78,8
tumanlar:						
Oqdaryo	3,2	82,3	0,0	0,0	3,2	82,3
Bulung'ur	7,5	93,9	1,40	0,0	6,1	76,0
Jomboy	6,5	75,0	0,0	0,0	6,5	75,0
Ishtixon	3,8	84,1	0,0	0,0	3,8	84,1
Kattaqo'rg'on	5,0	78,6	0,0	0,0	5,0	81,0
Qo'shrabot	3,7	82,1	0,0	0,0	3,7	82,1
Narpay	5,2	76,9	0,0	0,0	5,2	76,9
Payariq	5,5	76,8	0,0	0,0	5,5	76,8
Pastdarg'om	19,0	74,1	0,4	0,0	18,6	72,5
Paxtachi	3,4	94,0	0,3	0,0	3,1	84,8
Samarqand	12,0	71,7	0,3	41,0	11,7	73,1
Nurobod	4,4	81,2	0,0	0,0	4,4	81,2
Urgut	13,9	72,5	0,1	112,9	13,8	72,3
Toyloq	9,8	72,3	0,0	0,0	9,8	72,3

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2019- yil yanvar-oktabr oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi 0,38 % dan 0,36 % ga kamaygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi 259,4 mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 80,3 %) va mulkchilik shakllari bo'yicha 258,5 mlrd. so'm (99,64 %) nodavlat mulk hamda 0,9 mlrd. so'm (0,36 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi. Eng yuqori davlat ulushi Samarqand shahri (0,36 %)ga to'g'ri keldi.

	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Samarqand viloyati	259433,1	100,0	258497,0	99,64	936,1	0,36
Samarqand shahri	147846,4	57,0	146910,3	99,64	936,1	0,36
Kattaqo'rg'on shahri	8635,8	3,3	8635,8	100,0	-	-
tumanlar:						
Oqdaryo	3200,6	1,2	3200,6	100,0	-	-
Bulung'ur	7521,9	2,9	7521,9	100,0	-	-
Jomboy	6463,7	2,5	6463,7	100,0	-	-
Ishtixon	3841,8	1,5	3841,8	100,0	-	-
Kattaqo'rg'on	4953,6	1,9	4953,6	100,0	-	-
Qo'shrabot	3739,7	1,4	3739,7	100,0	-	-
Narpay	5230,8	2,0	5230,8	100,0	-	-
Payariq	5503,5	2,1	5503,5	100,0	-	-
Pastdarg'om	18963,1	7,3	18963,1	100,0	-	-
Paxtachi	3393,4	1,3	3393,4	100,0	-	-
Samarqand	11961,7	4,6	11961,7	100,0	-	-
Nurobod	4385,2	1,7	4385,2	100,0	-	-
Urgut	13943,1	5,4	13943,1	100,0	-	-
Toyloq	9848,8	3,8	9848,8	100,0	-	-

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 5 763,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 100,6 % ni tashkil etdi. Jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi 1 502,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 127,0 %), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi 4 260,2 mlrd. so'mni (93,8 % ni), shundan mikrofirmalar savdo tovar aylanmasi 2 581,5 mlrd. so'mni (93,2 % ni) va kichik korxonalar savdo tovar aylanmasi 1 678,7 mlrd. so'mni (94,7 % ni) tashkil etdi.

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Yirik korxonalar


Mikrofirma

Kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida o'tgan yilning mos davriga nisbatan yirik korxonalar bo'yicha Samarqand shahrida (2,8 marta) va Bulung'ur (398,7 marta), Paxtachi (52,3 marta) tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori ulush Samarqand shahrida (51,9 %), Pastdarg'om (7,3 %), Toyloq (9,9 %), Samarqand (5,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi o'zgarish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	5 763,1	100,6	1502,9	127,0	4260,2	93,8
Samarqand shahri	2 988,6	117,4	1088,6	2,8 m.	1 899,9	87,8
Kattaqo'rg'on shahri	97,1	99,6	0,3	173,2	96,7	99,5
tumanlar:						
Oqdaryo	129,7	92,6	0,4	3,3	129,3	100,7
Bulung'ur	184,9	150,0	69,3	398,7 m.	115,7	93,9
Jomboy	91,1	99,8	0,4	87,8	90,7	99,9
Ishtixon	95,3	108,2	11,6	4,9 m.	83,7	97,7
Kattaqo'rg'on	306,6	101,6	0,8	2,1 m.	305,8	101,4
Qo'shrabot	11,1	97,8	0,1	21,8	11,0	101,1
Narpay	56,9	108,0	12,1	164,8	44,8	98,9
Payariq	141,6	90,7	22,6	59,1	119,0	100,9
Pastdarg'om	423,1	48,5	281,9	38,3	141,2	103,8
Paxtachi	61,7	127,2	13,7	52,3 m.	48,1	99,6
Samarqand	329,3	98,8	0,4	21,9	329,0	99,2
Nurobod	33,5	97,6	0,3	2,2 m.	33,2	97,2
Urgut	243,5	98,5	0,4	130,4	243,1	98,4
Toyloq	569,1	97,8	0,2	179,7	569,0	97,8

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, 4 260,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 93,8 %ni, jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 73,9 % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda yuqori ulush Samarqand (99,9 %), Urgut (99,8 %), Oqdaryo (99,7 %), Kattaqo'rg'on (99,7 %) tumanlarida va Kattaqo'rg'on shahrida (99,7 %) bo'lgan. Eng past ulush esa Pastdarg'om (33,4 %) tumaniga to'g'ri keldi.

